TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIVAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIVASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIVAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anjonovich	



TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALARI

Jalilov Jamshid G'anijonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Marketing kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston, 100003, Toshkent sh., Chilonzor tumani,

Islom Karimov ko'chasi, 49-uy

E-mail: j.jalilov@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada tikuv-trikotaj korxonalarida vositachilarni motivatsiyalashda qo'llaniladigan motivatsiya usullari ilmiy asoslangan. Tikuv-trikotaj korxonalarida vositachilarga yo'naltirilgan motivatsiya usullaridan foydalanish holati tahlil qilingan. Shuningdek, vositachilarga yo'naltirilgan motivatsiya usullaridan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, motivatsiya usullari, xulq-atvorli va kommunikatsion rivojlantirish motivatsiya usuli, moliyaviy motivatsiya usuli, sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usuli.

Abstract. This article presents scientifically based motivation methods applied to intermediaries in garment and knitwear enterprises. The state of application of motivation methods aimed at intermediaries in sewing and knitwear enterprises is analyzed. The article presents directions for improving the application of motivation methods aimed at intermediaries in sewing and knitwear enterprises.

Key words: motivation, motivation methods, behavioral and communication development motivation method, financial motivation method, quality service motivation method.

Аннотация. В статье представлены научно обоснованные методы мотивации, применяемые к посредникам на швейно-трикотажных предприятиях. Проанализировано состояние применения методов мотивации, ориентированных на посредников на швейно-трикотажных предприятиях. Представлены направления совершенствования применения методов мотивации, ориентированных на посредников на швейно-трикотажных предприятиях.

Ключевые слова: мотивация, методы мотивации, метод мотивации развития поведения и коммуникации, метод финансовой мотивации, метод мотивации качественного обслуживания.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yengil sanoat, xususan, tikuv-trikotaj sanoati xalqaro savdoning eng dinamik rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kiyim-kechak mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin ortib borishi, iste'molchilarning sifat va dizaynga nisbatan yuqori talablar qo'yishi, shuningdek, global miqyosda tikuv-trikotaj korxonalarining marketing faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish zaruriyati sohaning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, marketing jarayonlarida inson resurslaridan samarali foydalanish va marketologlarni maqsadli rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kiyim ishlab chiqarish milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida mamlakat eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi. "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi" [1] da, xususan, tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, xalqaro bozorda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, soha



korxonalarida marketing faoliyatining samaradorligini ta'minlash, iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va raqobat ustunligini shakllantirish zarurati kuchaytiradi.

Shu bilan birga, tikuv-trikotaj korxonalarida marketing faoliyatining muvaffaqiyati faqat texnologik innovatsiyalar yoki reklama strategiyalari bilan cheklanib qolmaydi. Xodimlarning ijodiy va intellektual salohiyatini to'liq ishga solish, ularni korxona maqsadlariga erishishga samarali rag'batlantirish mexanizmlarini shakllantirish zarurdir. Chunki marketing faoliyatida inson omili hal qiluvchi resurs sifatida namoyon bo'lib, motivatsiya mexanizmlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi korxona raqobatbardoshligini oshirish va uning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda mavjud ilmiy adabiyotlarda motivatsiya nazariyalari va usullari umumiy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, ularning tikuv-trikotaj sanoati marketing faoliyatiga yo'naltirilgan metodologik yechimlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, mahalliy korxonalar sharoitida xodimlarni rag'batlantirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish, milliy mentalitet va bozor sharoitlariga mos metodologiyani yaratish zarurati dolzarbdir.

Shunday qilib, korxonalar marketing faoliyatida motivatsiya usullaridan samarali foydalanish masalasi ilmiy nuqtayi nazardan ham, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari marketing samaradorligini oshirish, marketologlarning ijodiy va kasbiy faolligini kuchaytirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy yengil sanoatning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etishdan maqsad — xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, iste'molchilarni va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni zarur tovar va xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlab borishdan iboratdir. Iste'molchilar jamiyatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning turli shakllarini xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lgan iqtisodiy subyektlar sifatida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqaruvchilar esa iste'molchilarning ehtiyojlarini qondiradigan, ularni mahsulotni xarid qilishga undaydigan tovarlarni ishlab chiqish hamda tegishli faoliyatni tashkil etishlari lozim. Mazkur jarayonda motivatsion mexanizmlar muhim o'rin tutadi, chunki ular xodimlar va vositachilarning mehnat faolligini oshirish, ularni natijadorlikka yo'naltirishga xizmat qiladi.

Motivatsiya (lot. *movere* — "harakatlantirmoq", "uyg'otmoq") tushunchasi birinchi bor 1880-yillarning boshlarida psixologik adabiyotlarda tilga olingan [2]. Websterning yangi akademik lug'atida "motiv" — "insonni harakatga undovchi narsa, ehtiyoj yoki istak", "motivatsiyalash" esa — "motiv bilan ta'minlash", "motivatsiya" esa "motivatsiyalash faoliyati yoki jarayoni" sifatida ta'riflangan [3].

Tadqiqotchilar Cherry va Morin motivatsiyani jarayon sifatida izohlagan bo'lib, ularning fikricha, motivatsiya — bu maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni boshlaydigan, boshqaradigan va qo'llab-quvvatlaydigan jarayondir. Ular ta'kidlashicha, motivatsiya inson xulq-atvorining maqsadga yo'naltirilganligini ifodalaydi va u ehtiyojlardan kelib chiqadigan ichki rag'batlarni o'z ichiga oladi [4].

Del I. Hawkinsning ta'rifiga ko'ra, motivatsiya — bu xatti-harakatni faollashtiruvchi, uni maqsad sari yo'naltiruvchi va mazkur xatti-harakatni davom ettirishga quvvat beruvchi kuchdir. Unga ko'ra, motivatsiya inson xulq-atvorining shakllanishi va davomiyligida asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi [5].

Yevropalik olim Michael Solomon esa motivatsiyani quyidagicha izohlaydi: "Motivatsiya — bu insonni harakatga keltiradigan va uni maqsad sari yo'naltiradigan jarayondir". Unga ko'ra, motivatsiya inson faoliyatini maqsadga muvofiq ravishda boshqaruvchi ichki psixologik mexanizm sifatida qaraladi [6].

Korxona mahsulotlarini sotishda vositachilarga nisbatan qo'llaniladigan motivatsiya usullari — bu vositachilarni samarali ishlashga, korxona manfaatlariga sodiq bo'lishga undaydigan rag'batlantiruvchi omillar, vositalar, dastaklar va rag'batlar yig'indisidir. Korxonalarda vositachilarni motivatsiyalashda qo'llaniladigan motivatsiya usullarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- xulq-atvorli va kommunikatsion rivojlantirish motivatsiya usuli — xodimlarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, ularni jamoaviy muhitda faol ishtirok etishga yo'naltirish;
- moliyaviy motivatsiya usuli — ish haqi, bonus, mukofot a boshqa moddiy rag'batlantirish vositalarini o'z ichiga oladi;
- sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usuli — mijozlar bilan munosabatlarda yuqori sifat darajasini saqlash va xizmat ko'rsatish madaniyatini kuchaytirishga qaratilgan.

Korxonaning konseptual intilishlari, avvalo, tashqi muhitdagi vositachilarga qaratilgan bo'ladi. Shu bois bozor munosabatlarining chuqur va izchil rivojlanib borayotgan sharoitida korxonalar marketing faoliyatida motivatsiya tizimini vositachilar faoliyatiga moslashtirib ishlab chiqish hamda uni doimiy ravishda takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etishdan asosiy maqsad — xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, iste'molchilarni va xo'jalik yurituvchi subyektlarni barcha turdagi tovarlar hamda xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlab turishdan iboratdir. Iste'molchilar jamiyatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning barcha turlarini xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lgan iqtisodiy subyektlar hisoblanadilar. Ishlab chiqaruvchilar esa, o'z navbatida, iste'molchilar ehtiyojlarini qondiradigan tovarlar ishlab chiqarish hamda ularni xarid qilishga undaydigan faoliyatlarni amalga oshirishlari zarur. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda motivatsion mexanizmlar muhim o'rin tutadi.

Motivatsiya tadqiqoti iste'molchi qarorlarini qabul qilishning Freyding psixanalitik modeliga asoslangan yondashuv sifatida shakllangan. Ushbu yondashuvga ko'ra, xarid motivlarining muhim qismi ongsiz ravishda yuzaga keladi, chunki respondentlar brend yoki mahsulot toifasi haqida fikr bildirayotganda, ko'pincha o'z qarorlarining ichki sabablarini izohlay olmaydilar. Shuning uchun motivatsiyani o'rganishda psixologik, iqtisodiy va marketing omillar birgalikda tahlil qilinadi.

Korxona miqyosida vositachilarga yo'naltirilgan motivatsiya usullarining ahamiyatlilik darajasini aniqlashda respondentlar (ya'ni vositachilar) o'z tanlovlarini mustaqil belgilaydilar. Shu asosda vositachilarni motivatsiyalash indeksi (VMI) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$VMI = MU1 \times AD1 + MU2 \times AD2 + MU3 \times AD3$$

Bu yerda:

- MU1 — xulq-atvorli va kommunikatsion rivojlantirish motivatsiya usulini tashkil etuvchi ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdori;
 - MU2 — moliyaviy motivatsiya usulini tashkil etuvchi ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdori;
 - MU3 — sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usulini tashkil etuvchi ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdori;
 - AD1, AD2, AD3 — ushbu usullarning ahamiyatlilik ko'rsatkichlari.
- Ahamiyatlilik ko'rsatkichi (AD) esa quyidagicha aniqlanadi:

$$AD = \frac{n1}{2m} + \frac{n2}{3m} + \frac{n3}{6m}$$

Bu yerda:

- n1 — 1-o'rinda eng ahamiyatli deb topilgan motivatsiya usulini tanlagan respondentlar soni;
- n2 — 2-o'rinda deb baholangan motivatsiya usulini tanlagan respondentlar soni;
- n3 — 3-o'rinda deb baholangan motivatsiya usulini tanlagan respondentlar soni;
- m — umumiy respondentlar soni.

Vositachilarni motivatsiyalash indeksi (VMI) 1 dan 5 gacha bo'lgan oraliqda o'zgaradi. Ushbu indeks korxona marketing faoliyatida vositachilarga yo'naltirilgan motivatsiya usullaridan qay darajada samarali foydalanilayotganini aniqlash imkonini beradi.

Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- $1 < VMI \leq 3$ — past darajada motivatsiyalash;
- $3 < VMI \leq 4$ — o'rta darajada motivatsiyalash;
- $4 < VMI \leq 5$ — yuqori darajada motivatsiyalash.

Agar VMI indeksi 5 ga yaqin bo'lsa, bu holat korxonada vositachilarga yo'naltirilgan motivatsiya usullari yuqori darajada tashkil etilganini bildiradi. Natijada, vositachilar faoliyati samaradorligi oshadi, sotuv hajmi kengayadi hamda korxonaning bozor raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Shu tariqa, mazkur metodologiya tikuv-trikotaj korxonalarining marketing samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan tikuv-trikotaj korxonalari marketing faoliyatida vositachilarga nisbatan qo'llanilayotgan motivatsiya usullaridan qay darajada foydalanilayotgani tahlil qilindi. Kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalardan mahsulot xarid qiluvchi vositachilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida ularning motivatsiya usullariga bo'lgan munosabati va bahosi aniqlanib, ushbu jarayonning samaradorlik darajasi baholandi (1-jadval).



1-jadval. Korxona vositachilariga qo'llaniladigan motivatsiya usullaridan foydalanish holati haqidagi so'rovnoma natijalari [7]


Motivatsiya usullari	Qo'llanilayotgan motivatsiya usullaridan foydalanish, 1-5					O'rtacha qiymat
	"1" ni belgilagan respondentlar soni	"2" ni belgilagan respondentlar soni	"3" ni belgilagan respondentlar soni	"4" ni belgilagan respondentlar soni	"5" ni belgilagan respondentlar soni	
Xulq-atvorli va kommunikatsion rivojlantirish motivatsiya usuli	25	46	66	38	25	2.96
Moliyaviy motivatsiya usuli	52	58	43	26	21	2.53
Sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usuli	28	34	68	34	36	3.08

Jadval natijalariga ko'ra, tahlil shuni ko'rsatadiki, tikuv-trikotaj korxonalarida vositachilarni rag'batlantirishda turli motivatsiya usullaridan foydalanish samaradorligi bir xil darajada emas.

Xususan, moliyaviy motivatsiya usuli bo'yicha vositachilar tomonidan berilgan baholarga ko'ra, ushbu yo'nalishdagi rag'batlantirish mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarur. Ushbu usulning o'rtacha bahosi 2,53 ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich tahlil natijalariga ko'ra, motivatsiya tizimini takomillashtirishga ehtiyoj mavjudligini bildiradi.

Xulq-atvorli va kommunikatsion rivojlantirish motivatsiya usuli bo'yicha o'rtacha baho 2,96 ni tashkil etgan. Bu esa, vositachilarning korxona bilan samarali muloqotda bo'lishi va faoliyat jarayonida kommunikatsion ko'nikmalarni rivojlantirish borasida ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatadi.

Eng yuqori baho esa sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usuliga to'g'ri kelib, 3,08 ni tashkil etdi. Bu holat korxonalar tomonidan xizmat sifati va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash borasida ma'lum natijalarga erishilayotganidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Korxona vositachilariga qo'llaniladigan motivatsiya usullaridan foydalanish holati haqidagi so'rovnoma natijalari

So'rovnoma natijalariga ko'ra, vositachilar sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usulidan foydalanish holatini qoniqarli (3,08) deb baholaganlar. Biroq ushbu motivatsiya usulini tashkil etuvchi ayrim tarkibiy elementlarda



hali ham ma'lum darajada kamchiliklar mavjud. Bu esa korxonalar tomonidan xizmat sifatini yanada yaxshilash, vositachilarni malaka oshirish dasturlariga jalb etish hamda ularning xizmat ko'rsatishdagi ishtirokini rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi.

So'rovnoma vositasida olingan ma'lumotlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalardan mahsulot xarid qiluvchi vositachilar korxonalar tomonidan qo'llanilayotgan motivatsiya usullariga nisbatan ijobiy munosabat bildirgan bo'lsalar-da, ushbu tizimni takomillashtirishga ehtiyoj mavjud.


Tikuv-trikotaj korxonalari marketing faoliyatida vositachilarga yo'naltirilgan motivatsiya usullarini to'laqonli tarzda joriy etish va ularga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Ayniqsa, vositachilar bilan hamkorlikni kengaytirish, ularni korxonaning strategik sheriklari sifatida baholash hamda motivatsion mexanizmlarni kompleks tarzda ishlab chiqish zarur.

Kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalardan mahsulot xarid qiluvchi vositachilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ular tomonidan motivatsiya usullarining ahamiyatlilik darajasi ham aniqlangan (2-jadval).

2 – jadval. Vositachilarga korxona tomonidan qo'llaniladigan motivatsiya usullarining ahamiyatlilik darajasi haqidagi so'rovnoma natijalari [7]

Motivatsiya usullari	Motivatsiya usullarining ahamiyatliligi, 1–3			Ahamiyatlilik darajasi
	"1" ni belgilagan respondentlar soni	"2" ni belgilagan respondentlar soni	"3" ni belgilagan respondentlar soni	
Xulq-atvorli va kommunikatsion rivojlantirish motivatsiya usuli	9	13	18	0,295
Moliyaviy motivatsiya usuli	21	10	9	0,383
Sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usuli	10	17	13	0,322

Vositachilar tomonidan ahamiyatli deb ko'rsatilgan motivatsiya usuli — moliyaviy motivatsiya usuli ekan. Kam ahamiyatli deb esa xulq-atvorli va kommunikatsion rivojlantirish motivatsiya usuli ko'rsatilgan (2-rasm).



2-rasm. Vositachilarga korxona tomonidan qo'llaniladigan motivatsiya usullarining ahamiyatlilik darajasi¹

Tahlil natijalariga ko'ra, korxona tomonidan vositachilarga qo'llaniladigan motivatsiya usullarining ahamiyatlilik darajasi ichida moliyaviy motivatsiya usullarining ko'rsatkichi eng yuqori ekanligi kuzatildi (AD =

1 So'rovnoma natijalari asosida muallif ishlanmasi.



0,383). Bu esa vositachilar faoliyatida moddiy rag'batlantirish mexanizmlarining muhim o'rin tutishini, ularning ish samaradorligini oshirishda bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, vositachilarni motivatsiyalash indeksi (VMI) quyidagi formula asosida aniqlangan:

$$VMI = 2,96 \times 0,295 + 2,53 \times 0,383 + 3,08 \times 0,322 = 2,83$$

Tadqiqot natijalariga ko'ra, VMI = 2,83 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich vositachilarni motivatsiyalash darajasi past darajada ekanligini bildiradi, biroq tizimning mavjudligi va uni bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Demak, korxonalarda vositachilarni rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish orqali ushbu ko'rsatkichni yuqori bosqichga ko'tarish mumkin.

Shuningdek, tahlil jarayonida vositachilarga nisbatan qo'llaniladigan motivatsiya usullarining turli muddatlarda mahsulot xarid qiluvchi vositachilar o'rtasida sezilarli tafovutga ega emasligi aniqlangan. Bu esa korxonalar tomonidan vositachilarga xizmat ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash jarayonida barqarorlik va tenglik tamoyiliga amal qilinayotganidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tikuv-trikotaj korxonalari mahsulotlarini realizatsiya qilish jarayonida vositachilarga nisbatan bir xil yondashuv qo'llanilmoqda. Bu esa marketing faoliyatining muvozanatli olib borilishini, hamkorlik munosabatlarining barqarorligini va korxona imijining mustahkamlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, moliyaviy va kommunikatsion motivatsiya usullarini takomillashtirish vositachilar sadoqatini oshirish hamda sotuv hajmini barqaror ko'paytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, tikuv-trikotaj korxonalarida moliyaviy motivatsiya usullaridan foydalanish darajasi yetarli emas. Shu bois, ushbu korxonalarda boshqa turdagi motivatsiya usullarini ham takomillashtirish, ularni kompleks tarzda qo'llash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tikuv-trikotaj korxonalarining marketing faoliyatida vositachilarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy motivatsiya usullarini takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalarda differensial bonus tizimini ishlab chiqish, ya'ni sotuv hajmi, yangi mijozlar soni va xizmat sifati asosida bonus miqdorini belgilash;
- qo'shma marketing byudjetini shakllantirish, bunda reklama xarajatlarini korxona va vositachilar o'rtasida hamkorlik asosida moliyalashtirish;
- sodiqlik dasturini joriy etish, ya'ni korxona bilan uzoq muddatli hamkorlik qilayotgan vositachilar uchun "Oltin", "Kumush" va "Platinum" kabi statuslarni belgilash;
- dinamik chegirmalar tizimini ishlab chiqish, bunda mavsum, brend xususiyati va bozor talabidan kelib chiqib mos narx siyosatini yuritish.

Shuningdek, sifatli xizmat ko'rsatish motivatsiya usulini takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalarda SERVQUAL indikatorlarini (ishonchlilik, javob tezligi, empatiya va professionallik) amaliyotga joriy etish;
- "Eng faol vositachi" mukofoti orqali eng samarali vositachilarni tan olish va rag'batlantirish;
- vositachilar uchun brend madaniyati va xizmat etikasi bo'yicha trening dasturlarini ishlab chiqish hamda muntazam o'tkazib borish.

Tikuv-trikotaj korxonalari marketing faoliyatida yuqoridagi takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish vositachilar bilan hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash, ularning sadoqatini oshirish hamda korxonalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday chora-tadbirlar vositachilarni rag'batlantirish mexanizmlarini zamonaviylashtirish, sotuv hajmini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. — www.lex.uz
2. Forgas, J. P., Williams, K. D. & Laham, S. M. (2005). Social Motivation: Conscious and Unconscious Processes. Cambridge University Press, UK, p. 2.
3. Shanks, N. H. (2011). Management and Motivation. Jones and Bartlett Publishers, Chapter 2, p. 24.
4. Journal of Business Studies and Management Review (JBSMR), Vol. 4, No. 2, June 2021. P-ISSN: 2597-369X, E-ISSN: 2597-6265.
5. Hawkins, D. I., & Mothersbaugh, D. L. (2010). Consumer Behavior: Building Marketing Strategy. 11th ed. McGraw-Hill/Irwin, New York, USA, p. 360.
6. Solomon, M., Bamossy, G., Askegaard, S., & Hogg, M. K. (2006). Consumer Behaviour: A European Perspective. Pearson Education, Inc., U.K., p. 117.
7. Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.
8. www.marktforschung.de ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>